

RESEARCH ARTICLE

Semantic Analysis Of Zoonym Proverbs In Dari

Bibi Robiya Raxmonqulova

1st-Year Master's Student, Linguistics (Dari Language) Toshkent, Uzbekistan

VOLUME: Special Issue 2026

PAGE: 110-113

Copyright © 2026 European International Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies, this is an open-access article distributed under the terms of the Creative Commons Attribution-Noncommercial-Share Alike 4.0 International License. Licensed under Creative Commons License a Creative Commons Attribution 4.0 International License.

Abstract

This article analyzes issues of equivalence that arise in the process of translating zoonym proverbs from the Dari language into Uzbek. The study examines the semantic, cultural, and figurative features of zoonym units and addresses the problems of ensuring their equivalent and adequate translation into Uzbek.

KEY WORDS

Zoonym proverbs, equivalence, zoomorphic code, semantic analysis, linguoculturology.

INTRODUCTION

Maqollar aksariyat hollarda asl ma'nodan ko'ra ko'chma, majoziy ma'nolarda ishlatiladigan ma'qullovchi yoki rad etuvchi kinoyalarga boy hikmatli so'z birikmalari yoki jumladan tarkib topgan bo'lib, ular asosida birinchi navbatda qiyoslash, qarama-qarshi qo'yish yoki o'xshatma (analogiya) prinsiplari yotadi. Albatta, bu xususiyatlar maqollarning umumiy xususiyatlari bo'lib, ular qaysi tilda bo'lishidan qat'iy nazar, barchasiga tegishlidir. Bu xususiyatlar afg'on xalqining yozma va og'zaki nutqida qo'llanilib kelayotgan maqollarga ham oiddir. Afg'onlarga xos bo'lgan odat — ular qaysidir anjuman, o'zaro suhbatlar yoki Jirga (جړگه — yig'ilish, parlament majlisi) vaqtida, bahs, ma'ruzalar va va'zlar chog'i, albatta, biror bir shoirning she'ridan, xususan, maqol va matallardan misol keltirish va shu bilan o'z nutqlarini bezash va gaplarini uqtirishni yaxshi ko'radilar. Afg'onlar orasida maqollarning uch turi: nasriy, sajlangan yoki qofiyali she'riy shakllari mavjud. Ammo folklorshunoslar xalq og'zaki ijodiyoti namunalari to'plamlarida maqollarni, odatda, nasriy asarlar qatoriga joylashtiradilar. Garchi afg'on xalqi maqollari haqida keng ko'lamli, maxsus tadqiqotlar hozircha amalga oshirilgan bo'lmasa-da, lekin yuqorida ko'rsatib o'tilganidek, ularni to'plab chop etishda salmoqli ishlar qilingan[1].

Zoonim komponentli matnlarni o'rganish turli xalqlar madaniy

xususiyatlari bilan tanishish imkonini beradi. Shuningdek, bu jarayon hozirda mavjud bo'lmagan hayvonlar haqida ma'lumotga ega bo'lish, madaniyatlar mushtarakligi yoki farqli jihatlarni aniqlash imkoniyatini ham yaratadi. Shu bois zoonim komponentli matnlarni, xususan, maqollarni tadqiq etish tilshunoslikning bir qator masalalarini hal qilishda ahamiyatlidir.

Maqollarning shakllanish manbalari nihoyatda rang-barang bo'lib, ular tilda muhim ifodaviy vazifa bajaradi. Maqollarning yuzaga kelishi, birinchi navbatda, so'zlovchining o'z fikrini obrazli-ekspressiv ifodalash ehtiyoji bilan bog'liq bo'lsa, ikkinchidan, jamiyatdagi munosabatlar, hodisa va holatlarni sodda va oydinroq, aniq va ta'sirchanroq ifodalash maqsadida xalq jonzoat va predmetlar obraziga murojaat qiladi. Jamiyatda insonlarning turmush tarziga, xulq-atvoriga, dunyoqarashiga xos bo'lgan xatti-harakatlar maqollarda hayvonlar obrazi, turli xil kasb-kor, uy-ro'zg'or, diniy tushunchalar; vaqt va o'simlik nomlari; o'zbek xalqi turmushi voqeligi hamda tabiat hodisalari kabilar orqali gavdalantiriladi.

Hayvon nomlari doirasida shakllangan o'zbek xalq maqollari, odatda, hayvonlarning tabiati, fe'l-atvori, tashqi ko'rinishi, harakati, tovushi, hayot kechirish tarzi, biologik xususiyati asosida yuzaga kelgan. Bu esa og'zaki ijod mahsuli bo'lmish

maqollarning o'sha xalq hayoti, turmush tarzi bilan chambarchas bog'liq ekanligini yana bir karra isbotlaydi.

Bugungi kunda lingvokulturologiya, etnolingvistika, psixolingvistika, sotsiolingvistika va boshqa yo'nalishlar doirasida zoonimlar tadqiqiga bag'ishlangan izlanishlar olib borilayotgan bo'lib, ular zoologik terminlar misolida muayyan xalqqa xos xususiyatlarni o'rganishga xizmat qiladi[2].

Insonlarning flora va fauna haqidagi tasavvurlari biomorf kodlarda o'z aksini topgan. V.V. Krasnixning ta'kidiga ko'ra, turli lingvomadaniyatlardagi ko'plab etalonlar biomorf kodlar mahsuli sifatida yuzaga kelgan. Buni o'zbek tilidagi chumoli (mehnatkashlik ramzi), tulki (ayyorlik ramzi), sher (mardlik ramzi), eshak (ahmoqlik ramzi), kabi etalonlarda kuzatish mumkin[5].

Biomorf kod — hayvonlar yoki o'simliklar bilan bog'liq kod bo'lib, uni hayvonlar, hasharotlar, qushlar va o'simliklar nomi aks ettiradi. Inson o'zini tabiatning qismi sifatida tasavvur etadi. Tabiatda uning eng yaqin qo'shnilari esa hayvonot hamda o'simliklar olami vakillaridir. D. Tosheva o'zining tadqiqotida o'zbek tilidagi frazemalarda eng faol qo'llanuvchi zoonimlar sirasiga it, ilon, ot, eshak, qush, quyon, tuya kabi jonivorlarni kiritish mumkinligini bayon etadi. Ularning turli xususiyatlari va insonga xos bo'lgan xususiyatlar, harakatlar o'rtasida o'xshashlik kuzatiladi. Shu bois ular bilan chog'ishtirish, ularga o'xshatish imkoniyati paydo bo'ladi. Lingvokulturologiyada zoomorf kod orqali insonning deyarli barcha xususiyatlari aks ettirilishi mumkin: jasurlik – burgutdek, qarchig'aydek; baquvvatlik – ayiqdek, arslondek, yo'lbarsdek, norday, fildek, sherdek; mashaqqatli mehnat qilish – itdek, eshakdek, molday, chumolidek; avramoq – o'rgimchakdek, ilondek kabilar shular jumlasidandir[3].

Dariy tilidagi zoonim komponentli maqollar tarkibida qo'llangan zoonimlarni asosiy 3 ta katta guruhga ajratish mumkin. Bular: uy hayvonlari, yovvoyi hayvonlar, qushlar, hashorotlar va boshqalarni ifodalovchi zoonimlar.

• uy hayvonlarini ifodalovchi zoonim komponentli maqollar – dariy tilidagi maqollarda uy hayvonlarini ifodalovchi zoonimlardan خر "eshak", گاو "sigir", گربه "mushuk", "it" komponentlari qo'llangan;

• yovvoyi hayvonlarini ifodalovchi zoonim komponentli maqollar – dariy tilidagi maqollarda yovvoyi hayvonlarini ifodalovchi zoonimlardan خرس "ayiq", روباه "tulki", گرگ "bo'ri" komponentlari qo'llangan;

• qush, hashorotlar va boshqalarni ifodalovchi zoonim komponentli maqollar – dariy tilidagi maqollarda qush, hashorat va boshqalarni ifodalovchi zoonimlardan خروس "xo'roz", مار "ilon", خاریشتک "tipratikan", مورچه "chumoli", موش "sichqon" komponentlari qo'llangan.

Quyida dariy tilidagi zoonim maqollar va ularning o'zbek tiliga muqobillarini ko'rib chiqamiz:

[5] کرده پیدا خرما، از خر افتاده

Tarjimasi: Eshakdan yiqildi, xurmo topdi.

Evivalent: yo'q.

Muqobil varianti: Har bir ishda (yomon hodisada) ham bir xayr bor.

Bu maqolning ma'nosi omadga ishora qiladi. Bu maqol xavfli vaziyatga tushib qolgan holda qimmatli narsaga erishgan odam haqida aytiladi. Masalan, bir odam eshak minib ketayotganda yiqildi va tanasi og'ridi, lekin yerdan qadimgi zamonlarda kamyob va tansiq bo'lgan xurmolarini topib oldi va u xursand bo'ldi. Bu maqol, yomon voqea sodir bo'lib, undan so'ng yaxshi narsalar yuz berganida va o'sha yomon hodisa omadli kelgani ifodalanayotganda ishlatiladi. Bu maqolning bizda muqobili variantida "eshak" zoonimi va "xurmo" fitonimi mavjud emas. Ekvivalentda "yaxshi" va "yomon" antonim so'zlaridan foydalanilgan, lekin mazmunan bir ma'no ifodalangan.

[6] اول آخور ببند بعد گاو بخر

Tarjimasi: Avval oxur qur, keyin sigir sotib ol

Evivalent: yo'q.

Muqobil varianti: Yangi uy qurmaguncha eskisini buzma.

Bu maqolning dariy tilidagi variantida "sigir" zoonimi va "oxur" so'zlari qo'llangan. Bu yerda Afg'onistonda chorvachilik yaxshi rivojlanib, yaxshi yo'lga qo'yilgani va bu maqollarda ham aks etishini ko'rishimiz mumkin. Maqolning o'zbekcha variantida "uy" so'zi ishlatilgan bo'lib, har qanday ishni boshlashdan oldin unga zamin tayyorlash va buning uchun kerakli vositalarni ta'minlash lozim degan fikrini ilgari suradi.

[7] گربه برای رضای خدا موش نمی‌گیرد

Tarjimasi: Mushuk sichqonni Xudoning roziligi uchun tutmaydi.

Evivalent: yo'q.

Muqobil varianti: Tekinga mushuk ham oftobga chiqmaydi.

Bu maqolda hech kim maosh olmasdan ishlamaydi, hamma foyda olish uchun mehnat qiladi. Hech kim sababsiz va maqsadsiz hech narsa qilmaydi va har bir ezgu ish ortida maqsad yotadi, degan fikr ilgari surilmoqda. Shuningdek biror shaxsning o'zgalarga yaxshilik qilishi, uning barcha harakatlari o'z maqsadiga erishish uchun, yoki, u bu ish bilan o'zini ko'z-ko'z qilishni xohlaydi yoki u uchun ham xuddi shunday yaxshilik qilishlarini kutadi. Uning bu ishlari boshqalarning muammolarini hal qilish yoki Alloh roziligi uchun emas, deyilmoqda. Ikkinchi ma'nosi, masalan, bir kishi boy va katta odam. Uning atrofidagi kimdir unga tez-tez yaxshilik va xushomad qiladi. Ammo uni tanigan va u bilan uzoq vaqt birga yashaganlar uning orqasidan: "Hech qanday mushuk Xudo uchun sichqon tutmaydi! U yo pul yoki mansab istaydi!", deb aytishlari mumkin. Bu maqolning har ikkala shakldagisida ham bir xil "mushuk" zoonimi qo'llangan. Shaklan bir – biridan farq qilsa-da ma'no jihatidan aynan o'xshash maqollardir.

[8] سیناست علی بو کوه در خرس

Tarjimasi: Ayiq tog'ning Ibn Sinosidir.

Ekivalent va muqobil variant yo'q.

Tog'dagi ayiq – Ibn Sino. Maqolning zohiriy ma'nosida ayiq – savodsiz, johil kishiga, tog' – begona va notanish yerga ishoradir. Bu maqolda Abu Ali ibn Sino mohir tabibga, ayiq esa hayvonlarning tug'ma tog'larda dorivor o'simliklar bilan davolash instinktiga ishora qiladi. Notanish va begona yerda savodsiz. odam o'zini bilimdon olim deb biladi. Ya'ni, eng yuqori darajadagi bilimlardan foydalanilmagan joyda, mavjud bo'lgan eng past bilimli insonlar dahodek ko'riladi va hurmat qilinadi. Buni, begona joyda va savodsizlar oldida ulardan salgina ko'p biladigan odam zamon olimiday ko'rinadi, deb talqin qilish ham mumkin. Bu maqolning o'zbek tilida muqobil varianti yo'q.

[9] مار گزیده از ریسمان دراز میترسد

Tarjimasi: Ilon chaqqan kishi uzun arqondan ham qo'rqadi[10]

Ekivalent: Ilon chaqqan kishi ola arqondan ham qo'rqadi.

Muqobil varianti: 1. Og'zi kuygan qatiqni ham pufiab ichadi.

2. Ko'r ham xassasini bir marta yo'qotadi.

Bu maqolning dariy tilda "ilon" zoonimi qo'llanib, ma'nosi: "Biror narsadan zarar ko'rgan kishi o'sha narsadan doimiy qo'rqib qoladi"dir. O'zbek tilida esa "Og'zi kuygan qatiqni ham pufiab ichadi" degan muqobil variantdagi maqol mavjud.

Dariy va o'zbek tillaridagi maqollar ma'no jihatdan bir-biriga juda yaqin hisoblanadi. Bu esa o'z navbatida bu ikki tildagi maqollarni o'zaro bir-biriga tarjima qilishda birmuncha yengillik beradi. Ushbu tillarining o'ziga xos semantik xossalari borligi, ayrim predmet yoki hodisalar bir xil atalsa-da, farqli ma'no kasb etishi mumkinligi e'tibordan chetda qolmasligi tarjima masalalarini o'rganishda sezilayotgan bo'shliq bilan bog'liq jiddiy muammolarni hal etishda muhim ahamiyat kasb etadi. O'zbek va afg'on xalqlarini umumiy tarix, madaniyat, mushtarak urf-odatlar va din o'zaro yaqinlashtirib turganligi bir-birining muqobili bo'lgan maqol, matal va iboralar yuzaga kelishiga sabab bo'lgan.

O'zbek va dariy tillaridagi maqollar ma'no jihatdan bir-biriga juda yaqin hisoblanadi. Bu esa o'z navbatida bu ikki tildagi maqollarni o'zaro bir-biriga tarjima qilishda birmuncha yengillik beradi.

Yuqorida keltirib o'tilgan maqollardagi خر "xar" "eshak" zoonimi bilimsizlik, nodonlik belgisi hisoblanib, nodon kimsalarga gapirish, nasihat qilish befoyda chunki ularga gapirganing bilan baribir qulog'iga olmaydi va amal qilmaydi. Baribir, o'zining bilganidan qolmaydi. O'zbek tilidagi ham dariy tilidagi maqollarda "eshak" zoonimi ayni yuqoridagi kabi insonlarning ramziy timsoli bo'lsa, خرس "xers" "ayiq" zoonimi esa savodsiz, vahshiylik va johillikning ramziy ifodasidir.

REFERENCES

1. Mannonov A. Afg'on xalq og'zaki ijodiyoti. Monografiya. – T.: Toshkent Davlat Sharqshunoslik Universiteti, 2021.
2. Maxamatova M. O'zbek xalq maqollarida zoomorf kodlarning ifodalanishi. // Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social science, 2022. – B. 267.
3. Maxamatova M. O'zbek xalq maqollarida zoomorf kodlarning ifodalanishi. // Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social science, 2022. – B. 269.
4. Wilson J.Ch. One hundred Afgan Persian proverbs. Peshavar, 2004. – P. 20.
5. Сабитова З.К. Лингвокультурология. – М.: Флинта: Наука, 2013. – С. 15-17.
6. یوسف جمشیدپوری. فرهنگ امثال فارسی. تهران ۱۹۶۷. ص ۴۵

7. یوسف جمشیدپوری. فرهنگ امثال فارسی. تهران ۱۹۶۷. ص ۵۷
8. یوسف جمشیدپوری. فرهنگ امثال فارسی. تهران ۱۹۶۷. ص ۷۴
9. یوسف جمشیدپوری. فرهنگ امثال فارسی. تهران ۱۹۶۷. ص ۷۹
10. <https://n.ziyouz.com>